

Tosheva Shohida Himmatovna

Mustafakulova Nilufar Elmurod qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqola avvalambor Zulfiyaxonimning hayotini, ijod yo'liga qadam qo'yayotgan onlarini, birinchi kitobidan tortib, umrining oxirlarigacha ijod qilishdan to'xtamaganini ba'yon qiladi.*

Аннотация: *Прежде всего, в этой статье описывается жизнь Зульфийяханим, моменты, когда она ступала на путь творчества, и то, что она не переставала творить с первой книги и до конца жизни.*

Annotation: *First of all, this article describes the life of Zulfiyakhanim, the moments when she was stepping on the path of creativity, and the fact that she did not stop creating from her first book until the end of her life.*

Kalit so'zlar: *tasviriy vositalar, lirika, yorqin obrazlar, davlat mukofoti, yig'loqi, serquyosh, suyakli yori, boqiy muhabbat.*

KIRISH

XX asr o'zbek adabiyotida Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Qahhor, O.Yoqubov, E.Vohidov, A.Oripov singari shoir va yozuvchilar qatorida yuksak is'tedod sohibi shoira Zulfiya asarlari - she'rlari - lirik dostonlari ham akademik litsey hamda umumta'lim maktablari adabiy ta'limida o'qitilib kelinmoqda. Zulfiya XX asr o'zbek lirikasining yurik namoyandalaridan biridir. Shoiraning ijod ufqi keng, badiiy mushohadasi o'tkir, ehtirosi jo'shqindir. Zulfiya she'riyatida hayotbaxsh lirik tuyg'ularga, yangi-yangi fikrlarga, chuqur g'oyaviy mazmunga, teran hissiyotga, ajoyib obrazlarga, rang-barang tasviriy vositalarga boydir.

Asosiy qism

Zulfiya she'riyatida lirika bilan publitsistik ruh o'zaro chambarchas bog'langan. Unda hayotga, insoniyatga, ezgulikka muhabbat tuyg'usi ufurib turadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Zulfiya tavalludining 80-yilligi munosabati bilan unga yo'llagan tabrik xatida shoira ijodiga yuksak baho bergan edi: "Siz zamonamizning zabardast shoiri va jamoat arbobi sifatida O'zbekistonning jarangdor ovozi bo'ldingiz, deb aytsak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Jahon minbarlarida yangragan she'rlaringiz Sharq ayolining aql-u zakosi, fazlu kamolidan noyob nishonadir...Siz latif ijodingiz bilan millionlab kishilarga ezgulik, muhabbat va sadoqatdan saboq berdingiz... Siz Gulbadanbegim, Zebuniso, Uvaysiy, Nodirabegim kabi Sharqning buyuk fozila ayollari boshlagan an'analarni boyitib, yangi pog'onaga ko'tardingiz. Mehribon va talabchan ustoz Zulfiyaxonimning mahorat maktabidan ko'plab yosh iste'dodlar bahramand bo'ldilar. Istiqloq ruhi Sizni, ijodingizni yanada yashartirib yubordi. Maftunkor she'riyatingiz yoshlik nafasi bilan qayta uchqunlandi "

XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik va bu oqimga mansub ma'rifatparvarlarning ijodi o'z davrining adabiy-badiiy va ma'rifiy hayotda muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Shoira ijodiy merosi o'z davridan to shu kungacha adabiyotshunoslar, so'z san'ati ixlosmandlari diqqat markazida bo'lib kelgan. Zulfiya hayoti va ijodi metodistlar tomonidan alohida tadqiqot obyekti qilib olinmagan. Shoira badiiy mahoratini o'rganish uning ijodiga xos nozik qirralarini anglashimizga yordam berishi shubhasizdir.

O'zbek diyori qadimdan shu paytgacha va ayni paytda ham shoira ayollarga boy bo'lgan diyordir. Qadimda Uvaysiy, Nodirabegimlar qalam tebratgan bo'lsalar, bugungi davrimizgacha bo'lgan she'riyat davrida, hokisor va jonkuyar adabiyotchi sifatida serg'ayrat shoira sifatida Zulfiyaxonim haqida yozgimiz keladi. Shoira nomini adabiyashtirish maqsadida mustaqil O'zbekistonda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta'sis etildi va ayni paytda bugunda yuzlab qizlarimiz, talabalarimiz ushbu mukofotga sazovor bo'lmoqdalar. Zulfiya jahon bo'ylab tinchlik va do'stlik g'oyalarini baland kuylagan shoira. Zulfiyaning serqirra ijodini M.Tursunzoda: "Hamisha navqiron va go'zal Zulfiya o'zbek ayollarining hech takrorlanmaydigan va yorqin obrazlari yaratganligi, ular qalbining boyligini yanada chuqurroq ochib berganligi uchun undan minnatdorman", – deya ta'riflagan.

Zulfiya XX asr o'zbek she'riyatining yirik vakillaridan biridir. U o'zining teran falsafiy, hassos, fojiviy va hayotbaxsh realistik ijodi bilan hozirgi zamon o'zbek she'riyatida yangi sahifa ochdi. Butun boshli jamiyatda faqat to'kislik va go'zallik haqida qalam tebratish urf bo'lgan bir davrda yashagan shoira Zulfiya ijodida, barcha zamondoshlari singari jamiyat va tabiat go'zalligini tarannum etuvchi satrlar bisyor. Lekin uning xazinasida umr yo'ldoshi Hamid Olimjondan ayrilib qolgan davrda qog'ozga "to'k"ilgan, "yig'loqi" degan ta'naga sabab bo'lgan "dard"lari o'z samimiyati bilan har qanday o'quvchini muvozanatdan chiqaradi. Shoira ularda qahramonini she'rxonga tuydira bilgan, uni firoq o'tida o'rtangan ma'shuqaning dardlariga chinakamiga sherik bo'lishiga erisha olgan. Zulfiyaning hijron mavzusida yozgan "Sen qaydasan, yuragim", "Ne baloga etding muftalo", "Sensiz" kabi she'rlari, tabiat go'zalligini tarannum etuvchi "Oydinda", "Bog'lar qiyg'os gulda" singari bitiklari, inson taqdiri, hayot tashvishi va quvonchlariga yo'naltirilgan "Nevara", "Men o'tgan umrga", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Lobar qizlarga" singari bir qator ash'orlari u yoki bu davrda umumiy o'rta ta'lim maktablari "Adabiyot" darsliklari tarkibidan ham o'rin olgan.

Zulfiya – atoqli davlat va jamoat arbobi, yer yuzida ozodlik va adolat uchun matonotli kurashchi sifatida maydonga chiqdi. Zulfiya serquyosh o'lkamizning baxtiyor va iste'dodli shoirasi bo'lgan. Zulfiya faqatgina O'zbekistonga emas balki jahonga mashhur shoira. Uning sermazmun g'oyaviy chuqur barkamol ijodi, lirik she'rlari orombaxsh qo'shiqlari barcha kitobxonni maftun qilib kelmoqda. Uning samimiy va ohangrabo she'rlari xuddi bahor shabodasidek kishiga yaqin ruh baxsh etadi. Shoira ko'proq, o'zbek xotin-qizlariga bag'ishlab she'r yozgan. Tojik shoiri

M.Tursunzoda Zulfiyaning quvnoq hayoti, farovon turmushi, mehmondorchiligini ravon misralarda mahorat bilan kuylagan:

Ey o'zbekimning qizi, sohibi xona,
Barcha tashvishlardan tamom begona,
Butun mamlakat ham ixtiyoringda,
O'zbekiston yangrar sening toringda.
Men sening qoshingga borurman shodon,
Bosh ustida deya kutarsan mehmon.
(B.Boyqobilov tarjimasini)

Zulfiyaxonim haqida qancha gapirsak ham kamdir. Shu kabi ma'naviy olami boy bo'lgan shoira hayot yo'li va umr mazmuni adabiyotimiz rivojiga qo'shgan hissalarini haqida har qancha faxrlanib gapirsa arzigulik. Zero, shoira qoldirgan boy ma'naviy va adabiy merosi bizning ayollarimiz va qizlarimiz uchun yagona hayot maktabidir. Shoira jo'shqin hayoti va serqirra she'riyat dunyosi o'ziga xosligi bilan o'zbek she'riyatida ajralib turadi. She'r inson qalbining oynasi, boyligi. Shu boylik qatra-qatra bo'lib, she'rga silqiydi. She'r boshdan oyoq olamga hayojonli munosabat. El ardoqlagan, she'riyat va sadoqat malikasi, O'zbekiston xalq shoiri, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotining laureati, "Neru" va "Nilufar" nomli xalqaro mukofotlar egasi Zulfiyaxonim tavallud topgan kuni bahor fasliga – tabiat uyg'onib, har tomondan jonlanish, yasharish boshlangan kunlarga to'g'ri kelar ekan, bunda qandaydir ishora bordek, nazarimda.

Zulfiyaning muhabbati, quvonchi, suyanchig'i Hamid Olimjon unga ilhom bag'ishlab, qalblarini nurga to'ldirar, shu nur she'rlariga yoyilar ekan, 29 yoshida achchiq qismat uni baxtidan ayirdi. Lekin ayriliq Zulfiyaxonimni irodasini buka olmadi. U suyukli yori Hamid Olimjon uchun ham yashash, yaratish, xizmat qilish tilagini o'zida kuch topib, matonat ila amalga oshirdi. Bu oson emasdi, shoira so'zi bilan aytganda:

Seni birdan jonsiz ko'rdim,
Jonim chiqdi mening-da.
Es-hushimdan ajrab turdim,
Tuyg'um ketdi sening-la

Nozik didli, xayoli gul bargidek toza, nafis ayol, ikki norasida go'dakning onasi Zulfiya o'zidagi barcha shijoat, iroda va iqtidor bilan taqdirning achchiq qismatiga o'zida bardosh topib, qaddini bukmay, yori uchun ham ijod qilishga shaylandi:

Hijronning qalbida, sozing qo'limda,
Hayotini kuylayman, chekinar olam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham

Shoira ushbu satrlarini o'z hayoti uchun dasturulamal qilib oldi. Endi Hamid Olimjon Zulfiyaning har bir she'riga kirib boradi, ularda ishtirok etadi, toza so'z satrlari bilan unga ilhom beradi: uning qoshida qal'adek ustuvor va mustahkam turadi. Zulfiyaning she'riyati ayol qalbining iztirobli izlanishlari ruhini aks ettiradi. U alohida ustuvor va qat'iyatli inson bo'lgani uchun ham kechinmalari juda chuqur va ko'pincha

juda dramatik ohanglarga to'la. Uning she'riyatida yengil, havoyi biron satr yo'q. Uni iztirob alangalari o'rab turadi. U vaqtning o'tib borishini behad nozik his qiladi. Zulmatni hayotidan quvishga harakat qiladi:

Tundan tongni uzib olaman,

Katta bo'lsam deb ishli kunim...

Zulfiya o'tayotgan umrning bekorga sarflamaganidan mamnun bo'ladi:

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,

Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:

Suydim,

Erkaladim,

Ayrildim,

Kuydim

Izzat nima bildim.

Shu-da bir yashash!

Shoiraning bunday she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, ularning yuzaga kelishiga omil bo'lgan hayotiy voqealarning tilga olinishi ham she'r mohiyatini anglab yetishda asosiy omillardan biri ekanligiga shohid bo'lamiz. XX asr buyuk faylasuflaridan biri Erix Fromm: "Muhabbat amaliyoti e'tiqod amaliyotini talab qiladi", – deb yozgan ekan. Zulfiya ijodiyotini ko'zdan ko'chirar ekanmiz, uning Hamid Olimjonga muhabbati e'tiqod darajasiga ko'tarilgan va go'zal misralarda o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmas.

XULOSA

Darhaqiqat, shoirani el suyib, she'rlari kuyga tushdi, o'zi esa vafo timsoli sifatida tillarda qoldi, muhabbati uni yurtga tanitdi. Chunki Zulfiya she'riyati tuyg'ular va fikrlarning yetukligi, tabiiyligi, favqulodda go'zal va ta'sirchanligi, so'z ma'nolarining kamalakdek tovlanishi bilan kitobxonlarni o'ziga tortdi. Shoir o'ziga yopiq muhabbatdan haykal yasadi. Muhabbat insonning eng qudratli va olamning ruhiy, jismoniy dunyolarini har tomonlama va butunlay qamrab, cho'lg'ab olguvchi, o'ziga bo'ysundiruvchi hissiyot ekan, shunday muhabbat sohibasi Zulfiya she'rlari har bir pok qalbga yo'l topishi tabiiy. Har birimizga nasib etsin, shunday boqiy muhabbat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov. Zulfiya ijodi. O'zDU asarlari, yangi seriya № 63. Samarqand, 1996 yil 27-bet.

2.Doniyorov.H, Mirzayev S.So'z san'ati.T, 1962, 173-174 b. 3.Zulfiya Isroilova asarlari, kitoblari- Kitobxon. com 3-b. 4.M. Ulug'ova. "Yana bahor keldi sini so'roqlab"Esse va lirik she'rlar.Sharq.Toshkent-2015 y.138-bet